



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 1 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	<i>SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINI MODERNIZATSIYA QILISH VA UNING QAMROVINI OSHIRISH YO'LLARI</i> <i>Adilova Gulnur Djurabayevna</i>	4
2.	<i>AGROSANOAT MAJMUIDA SUG'URTALANGAN OB'EKTAR HOLATINI MONITORING QILISHDA RAQAMLI GAT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI</i> <i>Yadgarov Akram Akbarovich</i>	7
3.	<i>MAMLAKAT ICHKI INVESTITSION IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISHDA SUG'URTA KOMPANIYALARI INVESTITSION FAOLIYATINING ROLINI OSHIRISH MASALALARI</i> <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	11
4.	<i>SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY HOLATINI BAHOLASH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH</i> <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	15
5.	<i>SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI BOSHQARISH TIZIMI</i> <i>Xolbayev Azamat Yuldashovich</i>	20
6.	<i>MAMLAKATIMIZDA OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH</i> <i>Abdusattarova Dildora Bohodirovna</i>	25
7.	<i>O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY SOHA XARAJATLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI</i> <i>Rashidova Guzal Abduvohidovna, Xamroyev Mexroj Sirojxonovich</i>	29
8.	<i>KORXONALAR MOLIYAVIY NATIJALARINI BOSHQARISHDA RAQAMLASHTIRISH TIZIMINING ROLI</i> <i>Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o'g'li, Faxriddinov Bekzodbek Faxriddin o'g'li</i>	32
9.	<i>TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BAHOLASHDA RISKLAR VA DIVERSIFIKATSIYANING O'RNI</i> <i>Toshtemirov Doston O'ktam o'g'li</i>	36
10.	<i>ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS: CONCEPTUAL FOUNDATIONS AND THREAT MITIGATION FRAMEWORK</i> <i>Agzamov Avazon Talgatovich, Malikova Dilrabo Muminovna</i>	40
11.	<i>ШАФФОФ ИНВЕСТИЦИОН МУХИТНИ ЯРАТИШГА ҚАРАТИЛГАН ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ</i> <i>Имомов Хамдилла Хамдамович</i>	44
12.	<i>TURIZM KORXONALARIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH MASALALARI</i> <i>Axrorov Zarif Oripovich</i>	47
13.	<i>ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКУ</i> <i>Эргашева Юлдуз</i>	50
14.	<i>O'ZBEKISTONDA TRANSPORT LOGISTIKASI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH SAMARADORLIGI</i> <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Fozilova Shaxloxon</i>	52
15.	<i>YURIDIK SHAXSLAR MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI</i> <i>Agzamov Avazxon Talgatovich</i>	55
16.	<i>JISMONIY SHAXSLARNING DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH TARTIBI VA UNING NAZARIY ASOSLARI</i> <i>Bobomurotova Manzura Panji qizi</i>	58
17.	<i>O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO STANDARTLARNING O'RNI VA AHAMIYATI</i> <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	62

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshov Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI BOSHQARISH TIZIMI

Xolbayev Azamat Yuldashovich

Xolbayev Azamat Yuldashovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada sug'urta tashkilotlari faoliyatida moliyaviy barqarorlikni boshqarish tizimining nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Moliyaviy barqarorlik sug'urta kompaniyalarining uzoq muddatli to'lovga qobiliyatligi, risklarni samarali boshqarishi hamda sug'urtalanuvchilar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyati bilan chambarchas bog'liq. Maqolada moliyaviy barqarorlikni baholash ko'rsatkichlari, boshqaruv mexanizmlari va ularni takomillashtirish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta tashkiloti, moliyaviy barqarorlik, to'lovga qobiliyatligi, sug'urta xazinalari, risk-menejment, kapital yetariligi, likvidlilik.

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical aspects of the financial stability management system in the activities of insurance organizations. Financial stability is closely related to insurance companies' ability to make long-term payments, effectively manage risks, and fulfill their obligations to policyholders on time. The article discusses indicators for assessing financial stability, management mechanisms, and ways to improve them.

Keywords: insurance organization, financial stability, solvency, insurance reserves, risk management, capital adequacy, liquidity.

Абстрактный: В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты системы управления финансовой устойчивостью в деятельности страховых организаций. Финансовая устойчивость напрямую связана со способностью страховых компаний осуществлять долговременные выплаты, эффективно управлять рисками и своевременно выполнять обязательства перед застрахованными. В статье освещены показатели оценки финансовой устойчивости, механизмы управления ими и способы их совершенствования.

Ключевые слова: страховая организация, финансовая стабильность, платежеспособность, страховые резервы, управление рисками, достаточность капитала, ликвидность.

Introduction (Kirish/Vvedenie).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta tashkilotlarining barqaror faoliyati moliyaviy tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Sug'urta kompaniyalari iqtisodiyotda risklarni qayta taqsimlash, investitsion resurslarni shakllantirish va ijtimoiy himoyani ta'minlash vazifalarini bajaradi. Shu sababli ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va samarali boshqarish dolzarb masalalardan biridir.

Moliyaviy barqarorlikni boshqarish tizimi sug'urta tashkilotining ichki va tashqi omillar ta'sirida o'z faoliyatini barqaror davom ettira olish qobiliyatini ifodalaydi. Bu tizim moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va nazorat qilish mexanizmlarini o'z ichiga oladi.

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi milliy iqtisodiyotning uzviy tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki sug'urta tizimi moliyaviy xavflarni taqsimlash, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va aholi hamda tadbirkorlik subyektlarining mulkiy manfaatlarini himoya qilishda muhim o'rin tutadi. Sug'urta kompaniyalarining uzoq muddatli faoliyati va majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olishi uchun ularning moliyaviy barqarorligi mustahkam bo'lishi lozim. Shu bois, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy holatini baholash va uni barqarorlashtirish maqsadida muayyan mezonlar ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu mezonlar orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy holati tahlil qilinadi va ularga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi.

Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlash va baholashda kapital yetariligi, likvidlik darajasi, sug'urta xazinalarining shakllanishi, qayta sug'urta mexanizmlaridan foydalanish samaradorligi va investitsiya faoliyati kabi mezonlar asosiy o'rin tutadi. Shu bilan birga, moliyaviy barqarorlik tashqi va ichki iqtisodiy omillar ta'sirida o'zgarib borishi mumkin. Jahon moliyaviy bozorlaridagi o'zgarishlar, makroiqtisodiy tendensiyalar, inflyatsiya darajasi, sug'urta talab va taklifi, raqobat muhiti kabi tashqi omillar sug'urta kompaniyalarining barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, kompaniyaning menejment strategiyasi, sug'urta portfelining diversifikatsiya darajasi,

risklarni boshqarish mexanizmlari kabi ichki omillar ham sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligiga hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi (Literature review, Анализ литературы)

Sug'urta tashkilotlari faoliyatida moliyaviy barqarorlikni boshqarish masalasi iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, u asosan moliyaviy menejment, risk-menejment va sug'urta nazariyasi doirasida tadqiq etiladi. Ilmiy manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, moliyaviy barqarorlik tushunchasi to'lovga qobiliyatligi, kapital yetariligi va risklarni boshqarish bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan Babel D.L., Greys J.D., & Kleyn, R. B. Frouer, K. A. Eugene F. Brigham va Joel F. Houston moliyaviy menejment nazariyasida korxonalar moliyaviy barqarorligini kapital tuzilmasi, likvidlilik va rentabellik muvozanati orqali izohlaydi. Ularning yondashuviga ko'ra, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun optimal kapital strukturasi shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Sug'urta nazariyasining fundamental asoslari esa Kenneth J. Arrow tomonidan ishlab chiqilgan risk va noaniqlik nazariyasiga tayanadi. Arrow sug'urtaning iqtisodiy mohiyatini risklarni taqsimlash mexanizmi sifatida asoslab bergan bo'lib, bu sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini risklarni diversifikatsiya qilish orqali ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar N.Abdullayeva, I.Abduraxmonov, G.Adilova, N.Jumayev, U.Imomov, I.Kenjayev, N.Mavrulova, Q.Nomozova, G.Nosirova, S.Umarov, X.Umarov, N.Xaydarov, G.Xalikulova, M.Xamroyev, F.Xasanov, X.Shennayev, S.Sherov, O.Yuldashev, N.Yakubova, Q.Qo'ldoshev tomonidan ham sug'urta bozorining rivojlanishi va moliyaviy barqarorlik masalalari keng o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida sug'urta kompaniyalarining moliyaviy resurslarini boshqarish, xazinalarni shakllantirish va davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari ilmiy asoslab berilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sug'urta tashkilotlari moliyaviy barqarorligini boshqarish masalasi ko'p qirrali bo'lib, u moliyaviy menejment, risk nazariyasi va davlat nazorati tizimining o'zaro uyg'unligiga tayanadi. Biroq zamonaviy sharoitda raqamlashtirish, global moliyaviy risklar va iqlim o'zgarishi kabi yangi omillar sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash metodologiyasini yanada takomillashtirishni talab etmoqda.

Tadqiqot maqsadi va usullari (Research objective and methods, Цель и методы исследования)

Tadqiqotni bajarish jarayonida qo'llanilgan usullar sug'urta tashkilotlari moliyaviy barqarorligini har tomonlama tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil va yondashuv, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va umumlashtirish, ekspert baholash va prognozlashtirish, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Mazkur tadqiqotda asosiy maqsadi sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ularning risklarni samarali boshqarish va kapital yetarililigi optimal darajada shakllantirish bo'yicha tizimli yondashuvni aniqlashdan iborat.

Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy barqarorlik tushunchasini aniqlash va uning iqtisodiy mohiyatini tadqiq etish.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash tizimining tarkibiy elementlarini — kapital boshqaruvi, sug'urta zaxiralari, risk-menejment, likvidlik va investitsion siyosatni o'rganish.

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini baholash uchun asosiy ko'rsatkichlar va metodlarni aniqlash.

Milliy va xalqaro tajriba asosida sug'urta kompaniyalarida moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Sug'urta bozorida barqaror va samarali faoliyat yuritish uchun boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash.

Umumiy maqsad: Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy barqarorlikni boshqarish tizimini ilmiy asosda tahlil qilish, uni takomillashtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tahlil va natijalar (Analysis and results, Анализ и результаты)

O'zbekiston sug'urta sektori, milliy iqtisodiyotning muhim va strategik tarmog'i sifatida, barqaror rivojlanishni ta'minlashga katta ahamiyat qaratishi zarur. Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimi bo'yicha o'zbek iqtisodchi olimlar va mutaxassislari qator tadqiqot ishlarni amalga oshirgan. Xususan, J.T.Nosirov o'z tadqiqotlarida sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorlikni boshqarish tizimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlab, ularning boshqarish bosqichlarini belgilagan¹. Iqtisodchi olim O.Hamdovning izlanishlari aksiyadorlik jamiyatlarini, jumladan, sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy menejmentning o'mini aniqlashga qaratilgan².

Professor I.X.Abduraxmonov o'z tadqiqotlarida sug'urta portfelini shakllantirishning muammolari, sug'urta mukofotlarini shakllantirish, ularni ko'paytirishda sohaga yangi texnologiyalarni joriy etish, tizimda yuz berayotgan o'zgarishlar, raqobatning yangi shakllari, sug'urta portfelini ko'paytirish bo'yicha o'z qarashlarini bayon etgan³.

Professor X.Shennayev o'zining tadqiqot va amaliy ishlarida O'zbekistonda sug'urta bozorini rivojlantirish va sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratgan. Shennayevning tadqiqotlari sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini baholash uchun innovatsion uslublarni ishlab chiqishi bilan ahamiyatlidir⁴. Iqtisodchi olim I.Kenjayeving tadqiqotlarida esa sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini samarali boshqarish yo'llari o'rganilgan⁵.

Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligi xorijiy olimlar tomonidan ham atroflicha tadqiq qilingan. Xususan, Devid L.Babbel va Kreyg B.Merrill foiz stavkalariga sezgir moliyaviy instrumentlar va ularning sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligiga ta'sirini

o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar olib borishgan. Ularning fikricha, sug'urta kompaniyalari o'z investitsiyalarini to'g'ri boshqarish orqali likvidlik va tavakkalchilikni muvofiqlashtirishga erishishi mumkin⁶.

Jorj D. Greys va Robert V.Kleyn AQSHda sug'urta kompaniyalarini tartibga solish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Ularning "Insurance Regulation in the United States" asarida sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun davlat tomonidan joriy etilgan tartibga solish mexanizmlari va ularning samaradorligi tahlil qilingan⁷. Kennet A.Frouer o'z tadqiqotlarida sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligiga iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik omillarning ta'sirini tahlil qilgan. Uning "Insurance and Behavioral Economics" asarida inson xulq-atvori va iqtisodiy qarorlarning sug'urta sohasidagi ahamiyati yoritilgan⁸.

Xorijiy tadqiqotchilarning ishlari sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha muhim nazariy yondashuvlarni taklif etgan. Biroq ularning tadqiqotlarida amaliyotga yo'naltirilgan mexanizmlar yetishmasligi kuzatiladi. Masalan, Greys va Kleyn tartibga solish mexanizmlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar taklif qilgan bo'lsa-da, ularning amaldagi ta'siri yuzasidan aniq baholar yetakchi tadqiqotlar bilan taqqoslanmagan. Shuningdek, Frouerning bixevioristik qarashlari sug'urta kompaniyalari uchun ahamiyatli bo'lsa-da, ularning iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta'siri yetarlicha tushuntirilmagan.

Rossiyada sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi bo'yicha A.Grachev va S.Sivolapov keng ko'lamlil tadqiqotlar o'tkazganlar. Grachev o'z asarida moliyaviy barqarorlik tushunchasiga ta'rif berib, uning asosiy ko'rsatkichlari va tahlil usullarini o'rgangan. Uning fikricha, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun aktivlar va passivlarning muvozanatini saqlash muhim ahamiyatga ega. Sivolapov esa sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ichki nazorat tizimlarini rivojlantirish va tavakkalchilikni samarali boshqarishni asosiy vazifa sifatida ko'rsatgan⁹. Qozog'istonda G.Qanatova va Ye.Seydaxmetov tomonidan sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi bo'yicha amaliy tadqiqotlar o'tkazilgan. Qanatovanning fikricha, sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda normativ-huquqiy bazaning takomillashtirilishi muhim o'rin tutadi. Seydaxmetov esa sug'urta bozorining umumiy moliyaviy barqarorlikka ta'sirini tahlil qilgan va investitsiya strategiyalarini diversifikatsiya qilishga e'tibor qaratgan¹⁰.

Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini belgilovchi asosiy mezonlar ularning iqtisodiy barqarorligi va uzoq muddatli faoliyatini ta'minlash uchun muhim indikatorlar hisoblanadi. Ushbu mezonlar kompaniyaning o'z majburiyatlarini bajara olishi, bozorda raqobatbardoshligini saqlab qolishi va iqtisodiy xavflarga bardosh berish qobiliyatini baholashda ishlatiladi. Quyida sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini aniqlashda eng muhim mezonlar keltiriladi:

Birinchi mezon – kapital yetarililigi.

Ikkinchi mezon – likvidlik darajasi.

Uchinchi mezon – sug'urta rezervlari va ularning yetarililigi.

To'rtinchi mezon – qayta sug'urta mexanizmlaridan foydalanish samaradorligi.

Beshinchi mezon – investitsiya faoliyati va daromadlilik.

Oltinchi mezon – risklarni boshqarish va sug'urta portfelining diversifikatsiyasi.

Yettinchi mezon – menejment samaradorligi va korporativ boshqaruv.

Sug'urta tashkilotlari moliyaviy barqarorligi va uni ta'minlash yuzasidan mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar tadqiqotlar ishlarni amalga oshirgan bo'lib, ularning bu boradagi fikrlari bir-biridan o'zaro farqlanadi mumkinki, tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarishning nazariy asoslari hamda usullari ob'yektiv va sub'yektiv omillar ta'siri natijasida doimiy ravishda takomillashib borishni talab qiladi. Shundan kelib chiqqan xolda, ayni paytda, mamlakat tijorat

¹ Nosirov J.T. "Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar va ularni boshqarish bosqichlari". — CEDR.uz

² Hamdamov O.N. "Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy menejmentning ahamiyati". — ITM.uz

³ Abduraxmonov, I.X. (2018). Sug'urta nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. — T.: "Iqtisod-moliya" nashriyoti, 23-24.

⁴ Shennayev X.M. "O'zbekiston sug'urta bozori: nazariy va amaliy jihatlar". — Toshkent: Iqtisod-moliya, 2013.

⁵ Shennayev X.M. "Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalari". — Toshkent: Iqtisod-moliya, 2015.

⁶ Shennayev X.M. "Sug'urta bozorini rivojlantirishning dolzarb muammolari". — Toshkent: Iqtisod-moliya, 2017.

⁷ Kenjayev I.G. "Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy resurslarini joylashtirish samaradorligini oshirish yo'llari". — OAK.uz

⁸ Баббел, Д. Л., & Меррилл, К. Б. (1998). Valuation of Interest-Sensitive Financial Instruments. The Journal of Risk and Insurance, 65(4), 613-637.

⁹ Трейс, Ж. Д., & Клейн, Р. В. (2009). Insurance Regulation in the United States: An Overview for Global Insurers. The Geneva Papers on Risk and Insurance — Issues and Practice, 34(1), 28-53

¹⁰ Фроуэр, К. А. (2013). Insurance and Behavioral Economics: Improving Decisions in the Most Misunderstood Industry. Cambridge University Press.

¹¹ Грачев А.В. Анализ и управление финансовой устойчивостью предприятия. — М.: Финпресс, 2002. — 208 с. Сиволопов С.Д. Финансовая устойчивость страховых организаций. — СПб.: Питер, 2005. — 256 с.

¹² Қанатова Г. Қазақстандағы сақтандыру компанияларының қаржылық тұрақтылығы. — Алматы: Экономика, 2010. — 198 б. Сейдахметов Е. Сақтандыру нарығының қаржылық тұрақтылығы. — Астана: Фолиант, 2012. — 220 б.

banklarida mazkur masalaga nazariy va amaliy jihatdan e'tibor berishi dolzarb bo'lib turibdi.

Sug'urta munosabatlari yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyati bilan bog'liq noxush hodisalar sodir bo'lganda tuzilgan sug'urta shartnomasiga asosan belgilangan miqdordagi sug'urta qoplamasini to'lash bilan ko'rilgan zararni qoplab berishdan iborat. Ushbu sug'urta mexanizmi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- individual iqtisodiy risklarni sug'urta puliga birlashtirish tamoyili;
- zararlarni taqsimlashda birdamlik tamoyili;
- psixologik omillarni hisobga olish tamoyili va boshqa shu kabi tamoyillar shular jumlasidandir.

Sug'urta mexanizmi ehtimollik xususiyatiga ega. Bu sug'urta munosabatlarining quyidagi xususiyatlarini keltirib chiqaradi:

- sug'urta riski;
- sug'urta hodisasi;
- sug'urta qoplamasi.

Har jihatdan samarali sug'urta mexanizmini ishlab chiqish va yo'lga qo'yish, sug'urta kompaniyasining malakali xodimlari va ular tomonidan ishlab chiqilgan sug'urta siyosatiga bog'liq. Puxta ishlab chiqilgan sug'urta siyosati sug'urta kompaniyasi faoliyatining davomiyligini va moliyaviy jihatdan barqarorligini ta'minlaydi.

1-jadval

Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarning tasnifi¹¹

Tashqi omillar		Ichki omillar	
Bevosita ta'sir etuvchi	Bilvosita ta'sir etuvchi	Bevosita ta'sir etuvchi	Bilvosita ta'sir etuvchi
Sug'urta kompaniyalar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish	Tashqi, ichki iqtisodiy va siyosiy vaziyat	Mijozlar sonining miqdori, rivojlanganligi va barqarorligi	Kompaniyaning umumiy strategiyasi
Soliq, valyuta, kredit va bojxona siyosati	Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining darajasi	Kompaniyaning faoliyat hajmi va ixtisoslashuvi	Sug'urta portfelining diversifikatsiyalashuvi va sug'urta xizmatlarning miqdori
Korporativ tuzilmalar o'rtasidagi o'zaro moliyaviy munosabatlarning	Moliya bozori konyunkturasi va rivojlanish holati	Zamonaviy risk menejmentini rivojlanganlik darajasi	Xususiy kapital va sug'urta zaxiralarning miqdori

Har bir sohaning moliyaviy barqarorligiga turlicha omillar ta'sir ko'rstadi, xususan, sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligiga esa ta'sir etuvchi faktorlar ikkiga bo'linadi, tashqi va ichki omillar. Sug'urta bozorining jadal rivojlanib borishida kompaniyalarning faoliyati muhim sanaladi, bundan tashqari jamiyatning sug'urta sohasiga bo'lgan munosabatida ham aks etadi, shuningdek, ularning moliyaviy barqarorligini uzoq muddat ichida ushlab turish esa ta'sir etuvchi omillarni baholash va risklarni minimallashtirish bilan bog'liq mexanizmlarni yaratishga qaratilgan.

Sug'urta tashkilotlari faoliyatida moliyaviy barqarorlikni boshqarish tizimi kompaniyaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini, sug'urtalanuvchilar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarishini hamda bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim boshqaruv mexanizmidir. Moliyaviy barqarorlik sug'urta kompaniyasining nafaqat joriy to'lovga qobiliyatligini, balki kelajakdagi risk va noaniqliklarga bardosh bera olish salohiyatini ham ifodalaydi.

Sug'urta tashkilotining moliyaviy barqarorligi — bu uning moliyaviy resurslari hajmi va tuzilmasining qabul qilingan majburiyatlarga mosligi, kapital yetarliligi va likvidlik darajasining me'yoriy talablarga javob berishi bilan tavsiflanadi. Moliyaviy barqarorlik kompaniyaning o'z faoliyatini uzluksiz davom ettirish, zararlarni qoplash va foyda olish imkoniyatini belgilaydi.

Zamonaviy yondashuvlarga ko'ra, moliyaviy barqarorlik riskka asoslangan boshqaruv tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bunda kapital hajmi qabul qilingan risklar darajasiga mos ravishda shakllantiriladi. Bu borada xalqaro miqyosda International Association of Insurance Supervisors tomonidan ishlab chiqilgan "Insurance Core Principles" tamoyillari muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy barqarorlikni boshqarish tizimi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. Kapitalni boshqarish

Kapital sug'urta kompaniyasining moliyaviy tayanchi hisoblanadi. Kapital yetarliligi darajasi risklarni qoplash imkoniyatini belgilaydi. Ustav kapitali, qo'shimcha zaxiralar va taqsimlanmagan foyda moliyaviy barqarorlikning asosiy manbalaridir.

2. Sug'urta zaxiralari

Sug'urta zaxiralari kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sug'urta to'lovlarini moliyalashtirish uchun shakllantiriladi. Zaxiralarning to'g'ri hisoblanishi va yetarliligi kompaniyaning barqarorligini ta'minlaydi.

3. Risk-menejment tizimi

Risklarni aniqlash, baholash va minimallashtirish moliyaviy barqarorlikni saqlashning muhim shartidir. Diversifikatsiya, limitlash va qayta sug'urtalash mexanizmlari risklarni kamaytirishning asosiy vositalari hisoblanadi.

4. Likvidlikni boshqarish

Likvid aktivlar ulushi qisqa muddatli majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish imkonini beradi. Aktiv va passivlarni muvofiqlashtirish (ALM) tizimi moliyaviy nomutanosiblikni kamaytiradi.

5. Investitsion siyosat

Sug'urta tashkilotlari vaqtincha bo'sh mablag'larini daromad keltiruvchi aktivlarga joylashtiradi. Investitsion siyosat konservativ va muvozanatli bo'lishi, risk darajasi qat'iy nazorat qilinishi zarur.

Sug'urta kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan sug'urta siyosati va uning amalga oshirilishining samaradorligini uning yil yakuni bo'yicha yuzaga kelgan moliyaviy natijalari, debitor va kreditor qarzdorliklarning holati, pul oqimlari va xususiy kapital dinamikasi orqali tahlil qilish mumkin. Quyida mazkur ko'rsatkichlarni "Kafolat" sug'urta kompaniyasi AJ misolida ko'rib chiqamiz.

2-jadval

"Kafolat-sug'urta" AJning moliyaviy natijalarining dinamikasi¹² (mln.so'm hisobida)

(1 yanvar holatiga)

Ko'rsatkichlar	Yillar					2021 yilga nisbatan 2025 yilda o'sish yoki kamayish %
	2021	2022	2023	2024	2025	
Sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan daromadlar	28 544,8	36 244,3	47 949,4	58 628,7	79913,2	280,0
Zararlarni qoplash bo'yicha qayta sug'urtadan daromadlar	1 413,1	3 169,7	4 857,7	8 440,9	6741,1	477,0
Qayta sug'urta bo'yicha komission mukofotlar, tanyemalar va yig'imlar bo'yicha daromadlar	2 703,9	5 174,9	7 468,1	2 963,6	1303,4	-51,8
Sug'urta xizmatlari ko'rsatishdan sof tushum	32 661,8	44 589,0	60 275,1	70 033,2	87957,7	269,3
Sug'urta xizmatlarini	15 899,3	21 056,5	28 278,4	29 465,9	34905,0	219,5

¹¹. Iqtisodiyot va moliya sohasiga oid adabiyotlardan olingan ma'lumotlarga asosan muallif tomonidan mustaqil tayyorlandi.

¹² "Kafolat-sug'urta" AJ ning balans hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

ko'rsatishdan yalpi foyda						
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	146	408,2	1 206,6	1 389,3	1897,1	1299,4
Moliyaviy faoliyatning daromadlari	4 557,8	5 963,7	4 794,9	8 391,2	16773,7	368,0
Foyda solig'ini to'langunga qadar foyda	3 075,4	3 063,2	3 567,4	4 306,1	4310,9	140,2
Hisobot davrining sof foydasi	2 531,7	2 605,1	3 080,4	3 525,0	4060,4	160,4

Jadval ma'lumotlarini tahlil qilganimizda zararlarni qoplash bo'yicha qayta sug'urtadan daromadlarning sezilarli oshganligi, qayta sug'urta bo'yicha komission mukofotlar, tanyemalar va yig'imlar bo'yicha daromadlarning kamayganligi va asosiy faoliyatning boshqa daromadlari keskin ravishda oshganligi ma'lum bo'ldi. Bitta ko'rsatkichdan boshqa barcha ko'rsatkichlar yuqori darajada oshgani holda, hisobot davrining sof foydasi nisbatan past darajada oshganligi sug'urta xizmatlari ko'rsatish bo'yicha xarajatlarning oshganligidan va bu kompaniyada ishni tashkil etish samaradorligining pasayganligidan dalolat beradi.

Sug'urta kompaniyasi pul oqimlari shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari masalasida sug'urta bozoridagi turli yo'nalishlar o'rtasidagi o'zaro aloqa, xususan, transport oqimlari, sug'urta kompaniyasidagi pul oqimlari masalalari tadqiqotchilar tomonidan yetarlicha o'rganilmagan. Sug'urta kompaniyasi moliyaviy oqimlarini tadqiq qilish shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kungacha qo'yilmalarni yangi sug'urta dasturlariga joylashtirishning barcha manbalarining mavjud imkoniyatlari to'liq aniqlanmagan. Sug'urta menejmentida sug'urta dasturlariga investitsiyalarning samarali yo'nalishlarini tanlash uchun kompaniya ichida pul mablag'lari harakatining dinamik xususiyatlarini hisobga oluvchi, ularning tashqi oqimlar bilan o'zaro aloqasini, joylashtirishning vaqt jihatidan to'g'ri belgilanishi masalalarida yangicha usullarni ishlab chiqish zarur.

2025 yilda Respublika sug'urta bozori 2021 yilga nisbatan 3,7 marta o'sib, shu yilda to'plangan sug'urta mukofotlari hajmi 1 635,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

3-jadval

Sug'urta kompaniyalarining filiallari sonining o'sish dinamikasi¹³

(1 yanvar holatiga)

Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025	2021 y.g.a nisbatan 2025 y.da o'sish yoki kamayish %
Sug'urta kompaniyalari soni	31	30	26	27	30	-1
Sug'urta kompaniyalari filiallari soni	1048	1148	1123	1284	1451	+403

Jadvalga ko'ra ma'lum bo'ldiki, 5 yil davomida sug'urta kompaniyalari sonida sezilarli o'zgarish bo'lmagan, 2021 yilga nisbatan 2025 yilda ularning soni bittaga kamaygan. Ammo shunday bo'lsada mamlakat hududlari bo'yab ushbu kompaniyalarning filial va bo'limlari soni sezilarli darajada oshib, 2021 yildagi 1048 tadan 2025 yilga kelib 1451 taga yetgan. Bu holat sug'urta xizmatlari mamlakatning chekka hududlarida ham ommaviylashayotganligidan dalolatdir.

Tahlil natijalariga ko'ra, 2021-yilda respublikada 31 ta sug'urta kompaniyasi faoliyat yuritgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ularning soni 30 tani tashkil etgan. Umumiy o'zgarish -1 ta yoki -3,2 foizni tashkil etadi. 2023-yilda kompaniyalar sonining 26 tagacha qisqarishi bozorda konsolidatsiya jarayonlari, ayrim kompaniyalarning qo'shilishi yoki faoliyatini to'xtatishi bilan izohlanishi mumkin. Keyingi yillarda esa tiklanish tendensiyasi kuzatilib, bozor nisbatan barqarorlashgani qayd etiladi.

¹³ National agency of perspective projects (NAPP) O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining 2024-yil yakuni bo'yicha umumiy ko'rsatkichlarittps://napp.uz/storage/files/shares/opendata/2024

4-jadval

O'zbekiston sug'urta bozorida to'planayotgan sug'urta mukofotlarining yillar bo'yicha o'sish dinamikasi¹⁴

(1 yanvar holatiga)

Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025	2021 y.g.a nisbatan 2025 y.da o'sish yoki kamayish %
Ixtiyoriy sug'urta	300,7	329,0	485,0	694,1	1371,7	456,2
Majburiy sug'urta	138,4	186,7	207,6	233,4	233,3	168,6
Jami	439,1	515,7	692,6	927,5	1635,2	372,4

4-jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta mukofotlari yillar kesimidan tahlil qilinganda o'sishga erishganini ko'rishimiz mumkin. Ixtiyoriy sug'urta turlari 2025 yilda 2021 yilga nisbatan 456,2 foizni tashkil etgan. Majburiy sug'urta turlari 2025 yilda 2021 yilga nisbatan 168,6 foizni tashkil etgan. Umumiy tarzda sug'urta mukofotlari 2025 yilda 2021 yilga nisbatan 372,4 foizga o'sganini ko'rishimiz mumkin. Ixtiyoriy sug'urta turlarini o'sib borishiga asosiy sabablardan biri aholini sug'urta turlari bo'yicha moliyaviy savodxonligini oshib borishi va hukumat tomonidan sug'urta tizimiga qaratilayotgan etibordan dalolat beradi.

Xulosa (Conclusion, Заключение)

Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy barqarorlikni boshqarish tizimini takomillashtirish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, sug'urta bozorini rivojlantirish va aholining sug'urta xizmatlariga bo'lgan ishonchini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Kompleks yondashuv, xalqaro tajribani qo'llash va zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish sug'urta kompaniyalarining barqaror va samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Sug'urta tashkilotlari faoliyatida moliyaviy barqarorlikni boshqarish tizimi kompaniyaning uzoq muddatli rivojlanishi va bozordagi ishonchligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, risklarni minimallashtirish va kapital yetariligi ta'minlash sug'urta tashkilotlarining barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda sug'urta kompaniyalarida riskka asoslangan boshqaruv tizimini joriy etish va xalqaro standartlarga mos ravishda moliyaviy nazorat mexanizmlarini takomillashtirish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda riskka asoslangan boshqaruv yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada xalqaro standartlar, xususan International Association of Insurance Supervisors tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar sug'urta kompaniyalarida kapital va risklar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki:

- kapital yetariligi moliyaviy barqarorlikning asosiy omili hisoblanadi;
- sug'urta portfelining diversifikatsiyasi risklarni kamaytiradi;
- likvidlilik darajasi qisqa muddatli majburiyatlarini bajarishda hal qiluvchi rol o'ynaydi;
- investitsion siyosatning muvozanatli yuritilishi moliyaviy natijalarni barqarorlashtiradi;
- ichki nazorat va audit tizimi yetarlicha rivojlanmagan hollarda moliyaviy xavflar ortadi.

Shu bois sug'urta tashkilotlarida moliyaviy barqarorlikni boshqarish tizimini kompleks va tizimli ravishda takomillashtirish zarur.

Shu bois, sug'urta kompaniyalarida moliyaviy barqarorlikni boshqarish tizimini takomillashtirish zamonaviy iqtisodiyot sharoitida ustuvor vazifa hisoblanadi.

¹⁴ National agency of perspective projects (NAPP) O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining 2024-yil yakuni bo'yicha umumiy ko'rsatkichlarittps://napp.uz/storage/files/shares/opendata/2024

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

11. Eugene F. Brigham, Joel F. Houston. Fundamentals of Financial Management. – Boston: Cengage Learning, 2019.
2. Kenneth J. Arrow. Essays in the Theory of Risk-Bearing. – Chicago: Markham Publishing Company, 1971.
3. Robert E. Hoyt, Peter Moles. Risk Management and Insurance. – Wiley, 2017.
4. International Association of Insurance Supervisors. Insurance Core Principles and Common Framework for the Supervision of Internationally Active Insurance Groups (ComFrame). – Basel, 2019.
5. International Monetary Fund. Financial Soundness Indicators: Compilation Guide. – Washington, DC, 2019.
6. Xolbaev A.Yu. Information Risk Insurance: Concept and Basic Aspects // International Journal of Trend in Scientific Research and Development, Vol. 6, Issue 1, November-December 2021. – Pp.760-766.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 1 martdagi PQ-108-son "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi PQ-4412-son "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
9. Холбаев А.Ю. Страхование информационных рисков (киберстрахование) // «Xalqaro moliya va hisob» ilmiy-elektron jurnali. – Toshkent, 2021. 2-son.
10. Xolbaev A.Yu. Informatsion risklarni sug'urtalash amaliyoti va muammolari (kiber sug'urta) // «Logistika va iqtisodiyot» ilmiy-elektron jumali. – Toshkent. 2021. 3-son. S.433-439.
11. Xolbaev A. Y. Insurance as a promising mechanism of information protection //Archive of Conferences.(Dec. 2021). – 2021. – С. 39-40.
12. <http://www.napp.uz> – O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining rasmiy sayti ma'lumotlari.